

**TAHLIL, TAQRIZ, SHARH, MUNOSABAT**

**ISMATULLO RAHMATULLONING “ALIFBE  
TA'LIMI” DARSLIGI TAHLILI**

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/UTZH1547

Dilafruz Raxmatova<sup>1</sup>

**Abstrakt**

Ma'lumki, Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlarida “usuli savtiya” jadid maktablari tashkil etilib, jadidlar o'zlari yashaydigan hududga moslab turli darsliklar yaratishgan. Bu darsliklar “Alifbo”dan boshlanib, turli fan-niy va islomiy bilimlarni o'z ichiga olgan. Ismatullo Rahmatulloning “Alifbe ta'limi” darsligi arab grafikasidagi eski o'zbek yozuvining o'ziga xos jihatlari ko'rsatibgina qolmay, ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi matnlarni o'z ichiga olganligini bilan ahamiyatli. “Alifbo ta'limi” XX asr boshida Samarqand jadid maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'p yillar davomida xizmat qilgan. Darslik Samarsanddagi “Gazarov” nomidagi matbaa uyida 1914-yilda chop etilgan bo'lib, 46 betdan iborat. U 90 soat dars uchun mo'ljallangan. Darslikda kichik matnlar, she'riy parchalar berilib, o'quvchilarning o'tgan darslarni mustahkamlashlari uchun xizmat qilgan.

***Kalit so'zlar:** Turkiston, “usuli savtiya” jadid maktabi, “Alifbe ta'limi”, pedagogik tajriba, noshirchilik, darslik, tovush va harf, hikoya, matn, she'riy parchalar.*

**KIRISH**

XIX asrning ikkinchi yarmida ro'yobga chiqqan siyosiy oqimlar ma'naviy-ma'rifiy masalalar qatorida millatning umumtili haqida gapira boshladilar. Shu davrning eng peshqadam ziyolilari – jadidlar o'zbek xalqini millat sifatida shakllantirishni o'zlarining eng buyuk maqsadlari, deb bildilar. Millatning mavjud bo'lishi uchun hududiy va ruhiy birliklar qatorida til birligi ham yuzaga kelgan bo'lishi shart edi. Masalaning ana shu jihatiga e'tibor qaratgan jadidlar yagona milliy tilni shakllantirish yo'lida harakat qildilar. Ular millat rivojini avvalo maktab islohotida deb bildilar.

<sup>1</sup> Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand Davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi.

**E-manzil:** rahmatovadilafruz2@gmail.com

**ORCID:** 0000-0002-3148-252X

**Iqtibos uchun:** Raxmatova, D. 2023. “Ismatullo Rahmatulloning “Alifbe ta'limi” darsligi tahlili» O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 109-114. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/UTZH1547

Shu bois, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda maktab islohoti keng rivojlandi. Jadidlar yurt kelajagini milliy dunyoqarashni saqlagan holda ta'lim tizimini isloh qilishda ko'rdilar. Buning uchun maktab darsliklari yaratishga harakat qildilar. Bu sa'y-harakatlar natijasi o'laroq jadidchilik harakatining asoschisi bo'lgan Ismoilbek Gaspiralinining "Rossiya musulmonligi", "Ovrupa madaniyatiga bir nazar muvozzini" singari darslik va qo'llanmalari ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan. Rus va turkiy tillarda chop etilgan "Tarjumon" gazetasida esa Turkiston maktablari haqida qiziqarli maqolalar e'lon qilib borilgan.

Albatta, Samarqand "usuli savtiya" jadid maktablari uchun Abdulqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy kabi millat oydinlari yaratgan darsliklar maktab o'quvchilarining bilimini, dunyoqarashini oshirgan. Darsliklarda harf va tovush sistemasi, arab yozuvining tilimizga moslashgan ayrim harflari yozilishi va o'qilishi, xat va maktub yozish qoidalari, tinish belgilarining ishlatilishi, ayrim terminlarning izohi kabi tilshunoslikka oid ma'lumotlar berilgan. Darsliklarda kichik matn va she'riy parchalar orqali ta'lim-tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish qoidalari, o'qish-o'qitishning ahamiyati, sog'liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish kabi fazilatlar o'quvchilar ongiga singdirilgan. Unda, albatta Turkiston tili, shevasi inobatga olindi. Bunda ayniqsa, bolalarning yoshi, bilimi, dunyoqarashi alohida e'tiborda bo'lgan.

## **ASOSIY QISM**

Samarqandlik jadidlar darsliklari tilini tahlil qilib, shu davrgacha o'zbek adabiy tilining jonli xalq tiliga yaqinlashuviga harakatlar bo'lganligini kuzatdik. Samarqandlik ma'rifatparvar, "usuli jadid" maktabi asoschisi va o'qituvchisi, darsliklar muallifi Ismatullo Rahmatulloning "Alifbe ta'limi" darsligi misolida ko'rib chiqamiz. [Abdullayev, Nurmuhammedov 1991]

Ismatullo Rahmatullo 1885-yilda Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida tavallud topgan. Abdulqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy jadid maktablarida tahsil olgach, rus-tuzem maktabida rus tilini mukammal o'rgangan. Ismatullo Rahmatullo Rusiya musulmonligida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalar bilan tanishib borgan. Ustozi Abdulqodir Shakuriy bilan hamkorlikda 1914-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan Qo'qonda ochilgan "Dorilyatim" ("Yetim bolalar maktabi") faoliyatini borib ko'rgach, Registon ko'chasida shunday jadid maktabini och-

gan. Turkistonda xotin-qizlarni savodli qilish uchun sinflar tashkil qilgan. Ismatullo Rahmatullo tashabbusi bilan Samarqandda Mao-rif instituti ochilib, unga o'zi direktor bo'lgan. 1937-yilda Ismatullo Rahmatullo "xalq dushmani" deb qoralanib, hayotining 17 yilini Shimoliy Qozog'istonda surgunda o'tkazgan. 1954-yilda Samarqandga qaytib, bog'cha va maktabda qorovullik qilgan.

Uning "Alifbe ta'limi" darsligi 46 betdan iborat bo'lib, 90 soat darsga mo'ljallangan. Darslik ko'p yillar davomida arab alifbosida o'zbek va tojik tillarida savod chiqarishda yaxshi va mazmunli qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Kitobning muqovasida katta harflar bilan quyidagi gaplar yozilgan: "Johil farzandning gunohi ota-onaning zimmasidadir. Bilim – yorug'likdir, nodonlik qorong'ulikdir". Xalqni savodli qilish, ma'rifat tarqatish, shu vazifa orqali jahonga chiqish yo'llarini axtargan jadidlar o'z darsliklarida ham bu g'oyani targ'ib qilganlar. Ota-onaning vazifalaridan biri o'z farzandini o'qishga chorlash, uning savodini oshirish ekanligini ta'kidlaganlar.

Darslik o'zlashtirilishi oson bo'lgan tovush va harflar bilan boshlanib, keyin murakkabroq matnlarga o'tilgan. Alifbe 3 qismdan iborat. Dastlab eski o'zbek yozuvining (arab grafikasi asosida) so'z boshida, o'rtasida va oxiridagi ko'rinishlari berilgan. Har bir harfning boshlanishi so'z va iboralar bilan boyitilib borilgan. Kitobning 10-betida, ya'ni 26-darsdan boshlab, o'quvchilar uchun kichik gaplar berilgan.

Ma'lumki, arab alifbosidagi "V" – "vov" harfi "a" tovushini va boshqa unli harflar bilan qo'shilganda "u", "o" unli tovushlarini ifodalaydi. Adib o'zbek va tojik tillarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, bu harflar "vovi majhul", "vovi mandud", ya'ni qisqa va uzun talaffuz qilinishini ta'kidlaydi. Darslikda bu, pu, tu, hamda o'sh, sho'r kabi misollarni keltirish asosida "v" harfining shu xususiyati bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Arab yozuvidagi "E" harfi ham shu usul bilan tushuntirilib, uning i, y, ye, e kabi tovushlarni bildirib kelishi bayon qilinadi. Darslikda arab yozuvida ifodalanadigan "harakatlar" va izfat haqida ma'lumot beriladi. Misol uchun bod tund, mard dono yozilsa ham, "bodi tund", "mardi dono" deb o'qilishi tushuntirilgan.

Ma'lumki, araf alifbosida bir xil aytilib, har xil yoziladigan bir qancha undosh harflar mavjud. Masalan, "z" tovushi aytilishi bir-biriga juda yaqin bo'lgan to'rt xil shaklda yoziladi. O'zbek tilida asosan bu harflarning birinchisi qo'llanilib, qolganlari esa, faqat ayrim arabcha so'zlarda uchraydi. Shuningdek, "s" undoshi ham uch shaklga ega. Jadidlar tomonidan "p" harfining arab yozuvida ifodalanmasligi, vaholanki o'zbek tili tarkibida "p" bilan yoziladigan so'zlar borligini

inobatga olib, eski o'zbek yozuvida ushbu harf shaklini ishlatishni taklif etishgan. Kitobning 32-beti, ya'ni 60-darsdan arab yozuvining bu xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi, bu harflar qanday so'zlar-da qachon ishlatilishi tushuntirilgan.

Darslikning mustahkamlash qismida kichik-kichik hikoyalar, matnlar, she'riy parchalar berilgan. Bu hikoya va she'rlar ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

“Bekorchilik ishlarning yomonidir. Men bekorchilikdan bezorman. Tirik bekorchidan o'lik yaxshi. Dunyoda har bir jondor biror xizmatga va har bir kishi ma'lum vazifaga ega bo'lishi kerak. Hushyor va g'ayratli shogirdlar hech vaqt bekor o'tirmaydilar”.

Albatta, jadidlar o'z g'oyalarini publisistik maqolalarida, nutqlarida, dramalarida, shuningdek darsliklarida ommaga singdirishga harakat qilishgan. Yuqoridagi kichik ko'rinishdagi matn ham yosh bolalar ongida o'qish va bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishi shubhasiz.

Shuningdek, alifboda fanniy ma'lumotlar ham bor. Masalan “Ob” (Suv) sarlavhali matnda 10-12 kichik gap orqali suvning hayot uchun, qishloq xo'jaligi uchun, obodonlashtirish uchun ahamiyati tushuntiriladi.

“Suvni ichamiz va u bilan yuvinamiz. Tegirmonlarni suv yurgizadi. Savzavotchilik va dehqonchilik suv orqali hosil qilinadi. Suv obodonchilik vositasidir”.

O'qish kitobining 37-betidan boshlab bolalar uchun o'ntacha kichik she'rlar berilgan. Ular ifodali, tushunarli, sodda tilda yozilgan bo'lib, asosan axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega:

Farudin kim yaxshi bola erdi.

Yig'lab otosig'a shundayin derdi:

– Ey, otajon, meni maktabga bergin,

Sargardon ko'chada kezishdan tiygin...”

Kitobda hikoyalar, she'riy parchalar va boshqa matnlar o'zbek va tojik tillarida sodda yozilgan bo'lib, o'qish, bilim olishga muhabbat, o'qituvchi, ota-onalar va umuman o'zidan kattalarga hurmat, do'stlik, sadoqat, to'g'rilik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy qiyofasini oshirishga qaratilgan.

Mehnat qahramoni, Samarqandda o'zbek maktablari inspektori Ismatullo Rahmatullo faoliyati haqida shunday tavsiyanoma berilgan. “...Chor hukumati “Turli maktab”lar uchun (jadid maktablari nazarda tutilmoqda – D.R.) hech qanday mablag' ajratmadi. Ular xalq maorifi vazirligining “o'gay o'g'li” singari taqdiri o'z holiga tashlab qo'yilib, nazar-e'tibordan chetda qolgan edilar.

“U vaqtda tayyor boshqaruv ko'rsatmalari va bolalarni ona tili savodxonligini oshirishda chor hukumatining g'amxo'rligi butunlay yo'q edi. Bularning hammasi o'rtoq Rahmatullaevda shaxsiy fidoyilik ko'rsatgani va shaxsiy metod va usullarni izlab topish, o'z shuningdek yangi metodda ishlaydigan maktablarni yaratish vositalarini izlash, Turkiston mahalliy xalqi sevadigan, yildan-yilga ko'proq muvaffaqiyat qozonadigan, bolalar o'z ona tilisida hech bo'lmasa boshlang'ich ma'lumot oladigan yagona muassasaga aylantirish tuyg'usini uyg'otdi”.<sup>1</sup> Ismatullo Rahmatulloga berilgan ushbu tavsiyanomada keyinchalik uning hayotida tub o'zgarish yasadi. Shu bilan birgalikda davrda o'zbek tiliga, bolalarning ona tilini o'rganishga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

### XULOSA

Afsuski, 1937-yilda qatag'on qurboniga uchragan Ismatullo Rahmatullo hayotining 17 yilini surgunda o'tkazishga majbur bo'ladi. Xalqni savodli qilish, maktabda o'zbek tilini o'qitish, gazeta va jurnallardagi maqolalar orqali o'zbek tilining mavqeini ko'tarish (o'sha davrda juda murakkab ish edi) kabi ma'rifiy ishlarni hayotining mazmuniga aylantirgan jadid Ismatullo Rahmatullo faoliyati bilan bog'liq tadqiqot ishlari amalga oshirilishi zarur.

O'zbek tilini davlat siyosati darajasiga olib chiqishda jonbozlik ko'rsatgan jadidlar qatori Ismatullo Rahmatulloning til borasidagi qarashlari Respublikamiz mustaqilikka erishgach, ro'yobga chiqdi.

### Adabiyotlar

- Abdullayev Y., Nurmuhammedov O'. 1991. "Yaxshilarning umri boqiydir" . Toshkent: – B.30.
- Ismatullo Rahmatullo. 1914. "Alifbe ta'limi". Samarqanddagi Gozoruf matbaasida taab etildi. – B. 48.
- Safarov Sh. 2006. *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor. – B. 55.
- Karimov S. 1992. *Badiiy matnning uslubiy alomatlari*. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri. – B. 44.
- Raxmatova D.M. 2021. *Behbudiy asarlarining chastotali lug'ati*. Samarqand, Fan bulog'i. – B. 405

<sup>1</sup> Ushbu tavsiyanoma pedagogika fanlari doktori, professor Yusuf Abdullayev shaxsiy arxivida saqlanadi.

# ISMATULLO RAHMATULLO'S "TEACHING OF THE ALPHABET" TEXTBOOK ANALYSIS

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/UTZH1547

Dilafruz Raxmatova<sup>1</sup>

## Abstract

It is known that at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, Jadid schools were established in Turkestan. These textbooks started with "Alifbo" and included various scientific and Islamic knowledge. Ismatullo Rahmatullo's textbook "Alifbe ta'limi" is significant in that it not only shows the unique aspects of the old Uzbek writing in Arabic graphics, but also contains texts about education and morals. "Alifbo ta'limi" served for many years for primary school students of Samarkand modern schools at the beginning of the 20th century. The textbook was published by the publishing house named after "Gazarov" and consists of 46 pages. It is designed for 90 hours of lessons. In the textbook, small texts and poetic fragments were given, which served to reinforce the previous lessons.

**Keywords:** *Turkestan, "Usuli savtiya" modern school, "Alifbe ta'limi", pedagogical experience, publishing, textbook, sound and letter, story, text, poetic fragments.*

## References

- Abdullayev Y., Nurmuhammedov O'. 1991. "Yaxshilarning umri boqiydir" . Toshkent: – B.30.
- Ismatullo Rahmatullo. 1914. "Alifbe ta'limi". Samarqanddagi Gozoruf matbaasida taab etildi. – B. 48.
- Safarov Sh. 2006. *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor. – B. 55.
- Karimov S. 1992. *Badiiy matnning uslubiy alomatlari*. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri. – B. 44.
- Raxmatova D.M. 2021. *Behbudiy asarlarining chastotali lug'ati*. Samarqand, Fan bulog'i. – B. 405.

---

<sup>1</sup> Rakhmatova Dilafruz Nusratilloevna – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, senior teacher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages.

**E-mail:** rahmatovadilafruz2@gmail.com

**ORCID:** 0000-0002-3148-252X

**For citation:** Raxmatova, D. 2023. "Ismatullo Rahmatullo's "teaching of the alphabet" textbook analysis." *Uzbekistan: language and culture. Questions of applied philology* 2(5): 109-114. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/UTZH1547